

**NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/29.08.2023.K/T.66.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

XUDAYBERDIYEV NOSIRJON ERGASHEVICH

**IKKILAMCHI TERMOPLASTLAR VA TERMOREAKTIV
QATRONLARDAN KO‘MIRLI ADSORBENTLAR OLISHNING
KOLLOID-KIMYOVIY ASOSLARI**

02.00.11 – Kolloid va membrana kimyosi

**KIMYO FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) Dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Content of the dissertation abstract of doctor of Philosophy (PhD)

Xudayberdiyev Nosirjon Ergashevich

Ikkilamchi termoplastlar va termoreaktiv qatronlardan ko‘mirli adsorbentlar olishning kolloid-kimyoviy asoslari 3

Худайбердиев Носиржон Эргашевич

Коллоидно-химические основы создания угольных адсорбентов из вторичных термопласта и терморективной смолы..... 21

Khudayberdiev Nosirjon

Colloid-chemical principles for the development of carbon adsorbents from secondary thermoplastics and thermosetting resin..... 39

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 43

**NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/29.08.2023.K/T.66.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

XUDAYBERDIYEV NOSIRJON ERGASHEVICH

**IKKILAMCHI TERMOPLASTLAR VA TERMOREAKTIV
QATRONLARDAN KO‘MIRLI ADSORBENTLAR OLISHNING
KOLLOID-KIMYOVIY ASOSLARI**

02.00.11 – Kolloid va membrana kimyosi

**KIMYO FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasida B2025.2.PhD/K963 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Namangan davlat texnika universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.namdtu.uz) va «ZiyoNet» axborot ta’lim tarmog‘iga (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ergashev Oybek Karimovich
kimyo fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Salixanova Dilnoza Saidakbarovna
texnika fanlari doktori, professor

Abdulxayev Tolibjon Dolimovich
kimyo fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Fargona davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat texnika universiteti huzuridagi **DSc.03/29.08.2023.K/T.66.02** raqamli Ilmiy kengashning « 12 » avgust 2025 yil 11⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 160115, Namangan shahri, Kosonsoy ko‘chasi 7-uy. Tel.: (69) 234-14-85; faks: (69) 228-14-85, e-mail: info@namdtu.uz), Namangan davlat texnika universiteti, 6-bino, 1-qavat, Ilmiy kengash xonasi).

Dissertatsiya bilan Namangan davlat texnika universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (43-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 160115, Namangan shahri, Kosonsoy ko‘chasi 7. Tel.:(69) 225-10-07).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «29» iyul kuni tarqatildi.
(2025 yil «29» iyuldagi № 21- raqamli reestr bayonnomasi).

Shamshidinov I.T.

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi o‘rinbosari, t.f.d., professor

Mallabayev O.T.

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash kotibi, k.f.f.d., dotsent

Sherqo‘ziyev D.Sh.

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) Dissertatsiyasi annotasiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Butun dunyoda suvni tozalashning dolzarb muammolaridan biri bu maishiy va sanoat faoliyati natijasida hosil bo'ladigan oqava suvlardan fenollar va farmatsevtik birikmalar kabi bardavom organik ifloslantiruvchilarni yo'qotish masalasi hisoblanadi. Ushbu birikmalarning biologik parchalanishga nisbatan yuqori chidamliligi samarali fizik-kimyoviy tozalash usullarini ishlab chiqishni talab qiladi, ularning orasida adsorbsiya usuli universalligi sababli yetakchi o'rinni egallaydi. Shu bois polimer chiqindilaridan, xususan, ularning termik va kimyoviy faollashtirilishi orqali ko'mirli adsorbentlar olish, g'ovakli tuzilmasi, sirt tarkibi va sorbsiya xossalarini maqbullashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda barqaror organik ifloslantiruvchilarga nisbatan yuqori selektivlikka va sorbsiya sig'imiga ega samarali sorbent materiallarni ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy va amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu munosabat bilan, ikkilamchi polimer chiqindilar asosida uglerodli adsorbentlar olish, ularni termik va kimyoviy faollashtirish, azot va oltingugurt tutuvchi qo'shimchalar bilan modifikatsiyalash, faollashtirish sharoitlari hamda modifikatorlar tarkibining uglerod matritsasining tuzilmasi va g'ovakligiga ta'siri, shuningdek, polimer xomashyodan samarali sorbentlar olishga qaratilgan ekologik asoslangan va resurs tejamkor texnologiyalarni ishlab chiqish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikada mahalliy xomashyo va sanoat chiqindilari asosida yangi adsorbentlar olish bo'yicha ilmiy va amaliy natijalarga erishilgan. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining 2022-2026 yillarga mo'ljallangan uchinchi yo'nalishida «Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va ichki yalpi mahsulotda sanoat ulushini oshirish, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga ko'paytirish...»¹ kabi vazifalar belgilangan. Shu nuqtai nazardan, yuqori samaradorlikka ega adsorbsion materiallar yaratish, ularning g'ovakli tuzilmasi, kolloid-kimyoviy va adsorbsion xossalari o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar alohida ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026 yillarda Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to'g'risida"gi, 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmonlari, shuningdek, 2017 yil 23 avgustdagi PQ-3236-sonli "2017-2021 yillarda kimyo sanoatini jadallik bilan rivojlantirish dasturi to'g'risida", 2018 yil 25 oktyabrdagi PQ-3983-sonli "O'zbekiston Respublikasida kimyo sanoatini jadallik bilan rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi va mazkur soha bilan bog'liq boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarning amalga oshirilishiga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotlarning respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "Yangi O'zbekistonning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan rivojlanish strategiyasi to'g'risida" gi PF-60-sonli farmoni.

texnologiyalar rivojlanishining VII “Kimyoviy texnologiyalar va nanotexnologiyalar” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon ilmiy tajribasida barqaror organik ifloslantiruvchilarni oqava suvlardan tozalash uchun yuqori samarali uglerodli sorbentlarni yaratishga qaratilgan faol tadqiqotlar olib borilmoqda. G‘ovakli tuzilma shakllanishining asoslari, uglerodli materiallarning termik va kimyoviy faollashtirilishi, xomashyo tabiatining va modifikatsiya sharoitlarining ta’siri P.Rebinder, G.Tsvik, R.Rouli, J.M. Stencel, F. Rodríguez-Reinoso, A. Linares-Solano, J. Hayashi, L. Mochidzuki, M. Sevilla kabi ilmiy maktablar tadqiqotlarida asoslab berilgan.

O‘zbekistonda esa professor K.S.Ahmedov rahbarligida turli kelib chiqishga ega sorbentlarning tuzilmasi va xossalarini kolloid-kimyoviy yondashuv asosida o‘rganishga yo‘naltirilgan ilmiy maktab shakllangan. Ushbu maktab vakillari E.A. Aripov, F.L.Glekel, S.S.Hamrayev, S.N.Aminov, A.A.Agzamxodjayev, U.K.Ahmedov, G.U. Rahmatkariyev, S.Z.Mo'minov, B.N.Hamidov, V.P.Guro, G.R.Narmetova, S.A.Abdurahimov, I.K.Satayev, O.K.Beysenbayev, O.K.Ergashev, I.D.Eshmetov, Sh.A.Kuldasheva, D.S.Salixanova A.B.Abdikamalova, D.J.Jumayeva va boshqalar adsorbsiyaning ilmiy asoslarini, jumladan, suv muhitlarini tozalash jarayonlarida muhim tadqiqotlarni amalga oshirganlar.

Adabiyotlar tahliliga ko‘ra, uglerodli adsorbentlarni yaratish sohasida erishilgan yutuqlarga qaramay, polimer matritsalar tarkibi va tuzilmasining, termik va kimyoviy faollashtirish sharoitlarining, shuningdek, geteroatomli modifikatorlar qo‘llanishining mikrog‘ovaklilik, funksional guruhlar va adsorbsion faollik shakllanishiga ta’siri masalalari yetarli darajada o‘rganilmaganligicha qolmoqda.

Dissertatsiya mavzusining, dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Namangan muhandislik-texnologiya instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq 2023-2024 yillarga mo‘ljallangan “Termoreaktiv polimer chiqindilaridan (BMS) to‘ldiruvchi sifatida foydalanilgan holda qurilish materiallari ishlab chiqarish” mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ikkilamchi termoplastlar va termoreaktiv qatronlardan uglerodli adsorbentlar olishning kolloid-kimyoviy asoslarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

fenol-formaldegid qatroni (FFQ) va polistirol (PS) asosidagi polimer chiqindilarining termik tahlilini o‘tkazish, ularning termobarqarorligi, uglerodning unumi va termik destruksiya xususiyatlarini hisobga olgan holda maqbul karbonlash sharoitlarini aniqlash;

PAN miqdorining FFQ va PS asosidagi uglerod materiallarida uglerodning unumi, mikrotuzilishi va tartiblilik darajasiga ta’sirini o‘rganish;

kimyoviy faollashtirish orqali morfologiyasi, g‘ovakli tuzilmasi ba teksturaviy xususiyatlarining o‘zgarishini tadqiq qilish, faollashtirishning optimal sharoitlarini aniqlash;

rentgen fazaviy va IQ-spektral tahlil ma'lumotlari asosida faollashtirish sharoitlarining uglerod materiallarining kristallanish, nuqsonlilik darajasi ba funksional tarkibiga ta'sirini baholash;

sintez qilingan adsorbentlarda organik ifloslantiruvchilar (fenol, uning hosilalari va sefazolin) ning adsorbsiyasi kinetikasi ba izotermalarini o'rganish, Lengmyur modellari parametrlarini aniqlash;

uglerod materiallarining tuzilma va tekstura xususiyatlari bilan ularning sorbsiya faolligi o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash ba tanlangan faollashtirish usullarining samaradorligini asoslash.

Tadqiqotning obyekti sifatida PS va FFQ chiqindilari, shuningdek, ularga PAN qo'shimchalari hamda natriy gidroksidi yordamida faollashtirish orqali olingan uglerodli materiallar tanlab olingan.

Tadqiqotning predmeti polimer xomashyosining tabiati, karbonizatsiya sharoiti, modifikatsiyalovchi qo'shimchalar tarkibi va kimyoviy faollash darajasining olingan uglerod adsorbentlarining tuzilishi, teksturaviy xususiyatlari va sorbsiya faolligiga ta'siri hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishini bajarishda dispers tizimlarning fizik-kimyoviy (IQ-spektroskopik, rentgen fazaviy, mikroskopik, termik) va kolloid-kimyoviy (adsorbsion, kalorimetrik, titrimetrik) xossalari aniqlashga mo'ljallangan zamonaviy va an'anaviy usullar keng qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

10 og'. % PAN qo'shilishi FFQ va PS tizimlarida 800 °C da uglerod qoldig'i unumini modifikatsiyalanmagan namunalar bilan solishtirganda kamaytirib, bu aromatik barqarorlashuv va azot tutuvchi tuzilmalar uglerod skeletiga kiritilishi bilan bog'liqligi aniqlangan;

NaOH ishtirokida 1:0,8 nisbatda amalga oshirilgan ishqoriy faollashtirish AFFQ-0,8 uchun 132 m²/g va APS-0,8 uchun 118 m²/g gacha bo'lgan maksimal solishtirma sirt yuzasini ta'minlashi, bu esa skeletning optimal darajadagi emirilishi va mikrog'ovakli tuzilma shakllanishi bilan bog'liqligi aniqlangan;

FFQ+PAN-10 va PS+PAN-10 namunalarining solishtirma sirt yuzasi mos ravishda 94,12 m²/g va 82,24 m²/g ga etishi, shu bilan birga mezog'ovaklar hajmi 0,1585 sm³/g (FFQ) va 0,1923 sm³/g (PS) ni tashkil qilishi, bu esa samarali termostrukturalash va mikrodefektlar shakllanishi bilan bog'liqligi asoslangan;

AFFQ-0,8 va APS-0,8 modifikatsiyalangan sorbentlarining fenolga nisbatan maksimal sorbsiya sig'imi mos ravishda 58 va 31 mg/g ni tashkil qilishi, bu ko'rsatkichlarning modifikatsiyalanmagan namunalar (FFQ-800 13 mg/g; PS-800 8,2 mg/g) bilan solishtirganda 4-7 barobar yuqoriligi, yuqori mikrog'ovak zichligi va funksional guruhlar mavjudligi bilan bog'liqligi isbotlangan;

AFFQ-0,8 namunasi sefazolin moddasini 49 mg/g gacha adsorbsiyalashi, bu ko'rsatkich tijorat aktiv ko'miri uchun atigi 19 mg/g ni tashkil qilishi, bunda sirtning funksional guruhlarga boyligi va antibiotik molekulalariga yuqori affiniglik bilan bog'liqligi aniqlangan;

Langmyur modeli bo'yicha eng yaxshi adsorbsion parametrlar AFFQ-0,8 namunasi uchun aniqlanib, fenol bo'yicha $A_0 = 0,23$ mmol/g, $K = 38,6$ va $\Delta G = -11,3$ kJ/mol, sefazolin bo'yicha esa $A_0 = 0,16$ mmol/g, $K = 41,38$ ni tashkil qilishi,

bu fizik-kimyoviy adsorbsiyaning vodorodli va π - π o‘zaro ta’sirlar orqali amalga oshishini ko‘rsatishi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

polistirol va fenol-formaldegid qatroni chiqindilaridan modifikatorlar (PAN) va ishqoriy faollashtiruvchi (NaOH) qo‘llagan holda uglerodli adsorbentlar olishning maqbul sharoitlari ishlab chiqilgan;

faollashtirilgan uglerodlardan organik birikmalar, ya’ni fenollar, antibiotiklar va bo‘yoqlardan ifloslangan oqava suvlarini adsorbsion tozalashda foydalanishning ilmiy asoslari aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Ilmiy tadqiqotlar zamonaviy fizik-kimyoviy va kolloid-kimyoviy usullar asosida olib borilgan, tajriba sinovlari esa laboratoriya va ishlab chiqarish sharoitlarida amalga oshirilgan hamda “KHANTEX GROUP” MCHJ tomonidan berilgan sinov dalolatnomalari bilan tasdiqlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati polimer chiqindilari asosida olingan uglerodli adsorbentlarni olishda modifikatsiyalash, karbonlash va kimyoviy faollashtirish jarayonlarining sorbsiya xossalari bilan bog‘liqligini ochib berish orqali, organik ifloslantiruvchilarga nisbatan sorbsiya faolligini belgilovchi omillarni aniqlash va uglerod materiallarining struktura-faollik bog‘liqligini tushunishda nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati PS va FFQ chiqindilari asosida yuqori sorbsiya xossalariga ega bo‘lgan yangi uglerodli adsorbentlar olish texnologiyasini ishlab chiqish, ularni farmatsevtik moddalardan ifloslangan oqava suvlarda qo‘llash imkoniyatlarini asoslash, shuningdek, mazkur ilmiy natijalarni oliy ta’lim muassasalarida kimyo, kimyoviy va farmatsevtik texnologiya yo‘nalishlari bo‘yicha magistrlar tayyorlash jarayonida o‘quv jarayoniga joriy etish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Polimer chiqindilari asosida adsorbentlar olish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

0,8 NaOH ishtirokida 800 °S da termokimyoviy faollantirish orqali olingan uglerodli adsorbent (APS-0,8) “KHANTEX GROUP” MChJda fenol birikmalari va fenolli bo‘yoqlar bilan ifloslangan to‘qimachilik oqava suvlarini tozalashda joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi “O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasining 2025 yil 22 apreldagi 03/25-2772-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, fenol birikmalari konsentratsiyasi 22 mg/l dan 0,8 mg/l gacha, bo‘yoqlar esa 29 mg/l dan 0,2 mg/l dan kamroq darajaga kamaytirish, shuningdek, umumiy organik moddalarning miqdori 128 mg/l dan 1,8 mg/l gacha pasaytirish, barqaror organik ifloslantiruvchilarni samarali ajratib olish imkonini bergan;

fenol-formaldegid qatroni va poliakrilonitril asosida termokimyoviy faollashtirish yo‘li bilan olingan AFFQ-0,8 uglerodli adsorbent “KHANTEX GROUP” MChJda umumiy oqava suvlardan fenol birikmalari va organik modda qoldiqlarini tozalashda joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi “O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasining 2025 yil 22 apreldagi 03/25-2772-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, fenol birikmalarining konsentratsiyasi 2,2 mg/l dan 0,2 mg/l dan past darajaga, umumiy organik moddalarning miqdorini 36,5 mg/l dan 9,2

mg/l gacha kamaytirish, oqava suvlari chuqur tozalash talablari bo'yicha yuqori samaradorlikka erishish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 16 ta, jumladan 2 ta xalqaro va 10 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 17 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola respublika, 1 ta maqola xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 4 ta asosiy bo'lim, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 117 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida ishning dolzarbligi va o'tkazilgan tadqiqotning ehtiyojdorligi asoslab berilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari yoritilgan, ishning O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatilgan, tadqiqot natijalarining ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot davomida erishilgan ilmiy va amaliy natijalar, tajriba-sanoat sinovlari, e'lon qilingan ilmiy maqolalar hamda dissertatsiyaning tuzilmasi haqida ma'lumot berilgan.

Dissertatsiyaning **“Sorbsiya jarayonlari va zamonaviy adsorbentlar. Oqava suvlardan tozalash uchun sorbsiya materiallarini yaratishda polimer chiqindilar”** deb nomlangan birinchi bobida sintetik polimerlarni, xususan, fenol-formaldegid qatroni va polistirolni qayta ishlash orqali uglerodli adsorbentlar olish masalalari tahlil qilingan, barqaror organik ifloslantiruvchilar jumladan, fenol birikmalari, bo'yoqlar va antibiotiklarni oqava suvlardan fizik-kimyoviy usullar bilan tozalashga oid dolzarb yo'nalishlar ko'rib chiqilgan.


Adabiyotlar sharhida polimer materiallarni termik va kimyoviy faollantirishga, shuningdek, poliakrilonitril kabi modifikatsiyalovchi qo'shimchalarning hosil bo'lgan uglerodli sorbentlarning tuzilmasi, g'ovakligi va sorbsiya xossalariga ta'siriga doir ilmiy ma'lumotlar umumlashtirilgan. O'tkazilgan tahlillar asosida ikkilamchi polimerlar asosida yuqori samarali adsorbentlar sintezi uchun tanlangan yondashuv asoslab berilgan hamda ushbu tadqiqot ishining maqsad va vazifalarini shakllantirishga imkon bergan.

Dissertatsiyaning **“Uglerodli adsorbentlar yaratish uchun obyektlarni tanlash va ularni termik ishlov berish jarayonlarini o'rganish”** deb nomlangan ikkinchi bobida polistirol va fenol-formaldegid qatroni chiqindilarining asosiy xossalarini o'rganishga oid tadqiqot natijalari bayon qilingan.

Polistirol (PS) va fenol-formaldegid qatronlari (FFQ) qurilish, qadoqlash, elektrtexnika va mebel sanoatida keng qo'llaniluvchi eng ommaviy sintetik polimerlar sirasiga kiradi. Tadqiqotda boshlang'ich obyekt sifatida O'zbekistonning “Termozon” MCHJ korxonasi olingan ikkilamchi FFQ va PS chiqindilaridan foydalanilgan. FFQ namunasi qora rangli, silliqashtirilgan va so'ndirilgan holatda,

cho‘yan shaklidagi granulali press-material ko‘rinishida bo‘lib, tarkibida to‘ldiruvchi sifatida qora uglerod (saja) mavjud bo‘lgan. PS esa ikki xil chiqindi shaklida bo‘lgan bo‘lib, ular 20-30 mm qalinlikdagi oq rangli, ko‘piklangan plast massali plitalardan iborat bo‘lgan.


FFQ PSga nisbatan yuqoriroq zichlikka ($1,30-1,35 \text{ g/sm}^3$) ega bo‘lib, bu uning aromatik va bog‘lovchi tuzilmasining zichroq ekanligini ko‘rsatadi. FFQning termik parchalanuv harorati ($\sim 300-350 \text{ }^\circ\text{C}$) ham PSga nisbatan ($\sim 280-320 \text{ }^\circ\text{C}$) balandroq bo‘lib, bu uning yuqori termik barqarorligidan dalolat beradi. Shu bilan birga, FFQ termoreaktiv polimer bo‘lganligi sababli, PSdan farqli ravishda, aniq erish haroratiga ega emas, PS esa taxminan $100 \text{ }^\circ\text{C}$ da yumshashni boshlaydi.




1-rasm. Polimer namunalarning kompleks termik tahlili.

Ta‘qdim etilgan PS namunasi termogrammasida inert muhitda olingan TG va DSC egri chiziqlari tasvirlangan. TG egri chizig‘ida massa yo‘qotilishining bir bosqichli xarakteri kuzatilib, bu jarayon taxminan $347 \text{ }^\circ\text{C}$ atrofida boshlanib, $463 \text{ }^\circ\text{C}$ da yakunlanadi, DTG egri chizig‘ida esa parchalanish tezligining maksimumi $421 \text{ }^\circ\text{C}$ da qayd etilgan. $600 \text{ }^\circ\text{C}$ da umumiy massa yo‘qotilishi taxminan 65% ni, $900 \text{ }^\circ\text{C}$ da esa $92,6 \%$ ni tashkil etadi, bu esa polimerning organik matritsasining deyarli to‘liq termik parchalanishi va faqat juda kam miqdorda qattiq qoldiq hosil bo‘lishini ko‘rsatadi. Bu holat PS uchun xos bo‘lib, uning tuzilmasi monomerli stiro, benzol va boshqa aromatik birikmalar kabi uchuvchan mahsulotlar hosil qiluvchi depolimerlanish jarayonlariga moyilligini bildiradi.

Tadqiq qilinayotgan obyektlarning inert muhitda termik ishlov berish harorati ta‘sirida massa o‘zgarishi natijalari 2-rasmda keltirilgan.



2-rasm. Namunalarning termik ishlov berish jarayonida massa kamayishi.




3-rasm. Namunalarning $600 \text{ }^\circ\text{C}$ da termik ishlov berish davomiyligiga bog‘liq holda massa o‘zgarishi.


2-rasmdagi grafik tahlili shuni ko‘rsatadiki, inert muhitda qizdirilganda PS $400 \text{ }^\circ\text{C}$ dan boshlab intensiv parchalanishni boshlaydi, FFQda esa bu jarayon

nisbatan barqaror va bir maromda kechadi. 500 °C da PS namunalari da massa yo‘qotilishi 21,7 % ni tashkil etsa, FFQda bu ko‘rsatkich atigi 10,8 % ni tashkil etadi. 1000 °C gacha bo‘lgan umumiy massa yo‘qotilishi PS uchun 42 % va FFQ uchun 36,7 % bo‘lib, FFQning termik parchalanish jarayoni barqarorroq ekanligi va uglerod qoldig‘i hosil qilish salohiyati yuqoriligi aniqlangan.

3-rasmda 600 °C da 7 soat davomida PS va FFQ namunalari ning massa yo‘qotish dinamikasi ko‘rsatilgan. PS dastlabki 3 soatda massaning 27 % ini tezda yo‘qotadi va so‘ngra jarayon barqarorlashib, umumiy yo‘qotish 33,2 % ni tashkil etadi. FFQda esa parchalanish bir tekis kechadi: dastlabki 3 soatda 12,7 % massa yo‘qotiladi, jarayon yakunida esa 16,7 % ga yetadi. Bu esa FFQning yuqori termik barqarorligi va uning to‘rli tuzilmasining bosqichma-bosqich uglerodlanishga o‘tishi bilan izohlanadi.



1) 2) 3) 4)
4-rasm. 1 va 2 – PS hamda 3 va 4 – FFQ asosidagi uglerodli namunalarning elektron mikroskopik tasvirlari:.



5-rasm.
Namunalarda azotning adsorbsiya-desorbsiya izotermalari (yuqoridan pastga): 1) FFQ-850; 2) PS-850; 3) PS-700; 4) FFQ-1000; 5) FFQ-700; 6) PS-1000.

700 °C da pirolizdan so‘ng olingan uglerod qoldiqlarining mikrofotosuratlarini shuni ko‘rsatdiki, FFQ zich, bir jinsli, mayda yoriqli va mikrog‘ovakli tuzilma hosil qiladi, PS esa katta bo‘shliqlar va ko‘plab yoriqlarga ega bo‘lgan bo‘sh, yuqori g‘ovakli skelet shakllantiradi. Pirolizdan so‘ng FFQ monolit uglerod matritsasini saqlab qoladi, unda shisha-ko‘mirga xos belgilar va bir tekis g‘ovaklik kuzatiladi, PS esa tartibsiz, parchalangan va past uglerodlanish darajasiga ega bo‘lgan tuzilma bilan tavsiflanadi. Har ikkala material ham amorf tabiatga ega bo‘lsa-da, FFQdan olingan uglerod yuqori barqarorlik va yaxlitlik bilan ajralib turadi.

5-rasmda keltirilgan azotning adsorbsiya-desorbsiya izotermalari mezog‘ovakli va makrog‘ovakli tuzilmalarga mos kelib, shakli bo‘yicha IUPAC tasnifi bo‘yicha IV-turga mansub bo‘lib, $P/P_0 > 0,4$ da yaqqol namoyon bo‘lgan kapillyar kondensatsiya sohasiga ega.

Ko'mir namunalarning teksturaviy xususiyatlari

Namuna	S_{sol} , m ² /g	V_1 , sm ³ /g	V_2 , sm ³ /g	R, Å	O'rtacha gidravlik g'ovak radiusi (V/A)
FFQ-700	52,33	0,0902	0,0137	80,603	6,226
FFQ-850	94,12	0,1293	0,0162	64,169	3,592
FFQ-1000	63,10	0,1102	0,0145	77,256	5,412
PS-700	65,26	0,1122	0,0173	80,607	3,578
PS-850	82,24	0,1229	0,0142	64,186	3,656
PS-1000	51,83	0,0831	0,0161	81,922	5,422


Teksturaviy xususiyatlar tahlili shuni ko'rsatdiki, FFQ va PS uchun eng yuqori solishtirma sirt maydoni va g'ovak hajmi qiymatlari 850 °C da kuzatilgan. FFQ namunasi uchun sirt maydoni 94,12 m²/g, umumiy g'ovak hajmi esa 0,1293 sm³/g ni tashkil etib, ularning asosiy qismini mezog'ovaklar (0,1131 sm³/g) tashkil etgan. 700 °C va 1000 °C da bu ko'rsatkichlar kamaygan bo'lib, bu haroratlarda strukturaning yetarlicha parchalanmasligi yoki sinterlanib qolishi bilan izohlanadi. PS namunasi ham 850 °C da maksimal sirt maydoni – 82,24 m²/g va g'ovak hajmi – 0,1229 sm³/g ni ko'rsatgan, boshqa haroratlarda esa ushbu ko'rsatkichlar pasaygan. Shunday qilib, 850 °C harorati har ikkala tizimda rivojlangan mezog'ovakli tuzilma shakllanishi uchun optimal deb topilgan.

Dissertatsiyaning **“Azot tutuvchi modifikatorlarning uglerodli adsorbentlar tuzilmasi, tarkibi va g'ovakligiga ta'sirini o'rganish”** deb nomlangan uchinchi bobida FFQ va PS asosidagi faollashtirilgan ko'mirlarda turli omillarning g'ovakli tuzilma shakllanishiga ta'siri bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot natijalari bayon qilingan.

PAN chiqindilari va natriy gidroksid tanlanishi uglerodli adsorbentlarning g'ovakli tuzilmasini maqsadli shakllantirish zarurati bilan izohlanadi. PAN qo'shilishi termik ishlov paytida gazsimon mahsulotlarning ajralishi hisobiga g'ovaklik rivojlanishiga xizmat qiladi: nitril va boshqa azot tutuvchi guruhlar yuqori haroratgacha tuzilmada saqlanadi va faqat grafitlanish bosqichida parchalanib, qo'shimcha mikrog'ovaklar hosil qiladi hamda solishtirma sirt maydonini oshiradi. Uglerod chiqishi biroz kamayganiga qaramay, PAN qo'shilishi materialning teksturaviy xususiyatlarini sezilarli darajada yaxshilashga imkon beradi. Natriy gidroksid esa kimyoviy faollashtiruvchi sifatida polimer matritsasini parchalash, degidratatsiyani faollashtirish va mikronuqsanlar hosil qilish orqali rivojlangan mikrog'ovakli tuzilma shakllanishiga va uglerodli adsorbentlarning sorbsiya sig'imini oshirishga xizmat qiladi.

PANning uglerod qoldig'i unumiga ta'sirini o'rganish uchun PAN miqdori 0-20 mass.% oralig'ida bo'lgan aralashmalarning karbonizatsiyasi asosida taqqoslovchi tahlil metodikasi ishlab chiqildi. Boshlang'ich komponentlar (FFQ yoki PS) maydalanib, PAN bilan aralastirildi, 105 °C da quritildi va inert muhitda bosqichli termik ishlovga tortildi: 250 °C da stabilizatsiya va 700 °C da karbonizatsiya. Sovitilgach, namunalari tortildi va uglerod chiqishi qoldiq massasining dastlabki massaga nisbati sifatida hisoblab chiqildi. PAN miqdorining uglerod chiqishiga bog'liqligini aks ettiruvchi grafiklar asosida uning g'ovaklik hosil qiluvchi va modifikatsiyalovchi komponent sifatidagi roli baholandi.

PAN qo‘shilishi FFQ va PS namunalarida termik ishlov jarayonida massa yo‘qotilishini kuchaytiradi. Masalan, FFQ uchun 200 °C da PANsiz holatda massa yo‘qotilishi 1,7 % bo‘lsa, 10 % PAN qo‘shilganda bu ko‘rsatkich 2,34 % ga yetadi; 500 °C da esa mos ravishda 10,8 % dan 12,18 % gacha oshadi. 1000 °C da qoldiq massa 36,7 g dan 38,7 g gacha kamayadi, bu esa atigi 6 % dan kam o‘zgarishni anglatadi. PSda PAN ta’siri yanada yaqqol: 10 % PAN bilan massa yo‘qotilishi 42 % dan 51,2 % gacha ortadi. Shunday qilib, PAN kiritilishi parchalanish va gaz ajralishini kuchaytirib, rivojlangan g‘ovakli tuzilmaning shakllanishiga yordam beradi.




6-rasm. Uglерodli namunalar – FFQ-800 va PS-800 (PANsiz va 5 % PAN qo‘shilgan holatda) uchun sxematik XRD-difraktogrammalar.

Rentgenofazoviy tahlili shuni ko‘rsatdiki, FFQ-600 namunasi $\sim 22^\circ 2\theta$ da keng amorf cho‘qqi bilan xarakterlanadi, 800 °C da (FFQ-800) esa (002) cho‘qqining ($\sim 26^\circ 2\theta$) torayishi va kuchayishi, shuningdek, (100) cho‘qqisining ($\sim 43^\circ 2\theta$) yelkasi paydo bo‘lishi grafitga o‘xshash sohalarning shakllanishini va tuzilmaning tartiblanishini ko‘rsatadi. PS-600 namunasi deyarli aniq cho‘qqilarga ega emas, PS-800 esa $\sim 25^\circ 2\theta$ atrofida xira va keng cho‘qqi ko‘rsatadi, bu aromatik tuzilmalarning qisman shakllanganini, ammo umumiy tuzilmada amorflik saqlanib qolganini bildiradi. PAN qo‘shilishi aromatik fragmentlar shakllanishini kuchaytiradi: PAN qo‘shilgan PS namunasi 800 °C da (002) cho‘qqining paydo bo‘lishini ko‘rsatadi, garchi tuzilma yuqori darajada nuqsonli bo‘lib qolsa ham. FFQ uchun PAN qo‘shilishi defektlilikni oshiradi, biroq yaqqol yaqin tartib va qatlam ichidagi korrelyatsiyani saqlab qoladi. PANdagi azotli guruhlar qatlamlararo masofani kengaytiradi, biroq bir fazali tuzilmani saqlaydi. Demak, PAN qo‘shilishi aromatik kondensatsiya va tartibli sohalarning rivojlanishiga yordam beradi, ayniqsa, termik barqarorligi nisbatan past bo‘lgan PS asosidagi tizimlarda.


Faollashtirilgan uglерod materiallarini olish uchun PS+PAN va FFQ+PAN aralashmalari NaOH bilan (1:0,1–1:2 nisbatda) ikki bosqichli termik ishlovga tortilgan. Birinchi bosqichda PANning siklizatsiyasi va FFQning issiqlik bog‘lanishini ta‘minlash maqsadida 250-300 °C da havo oqimida stabilizatsiya o‘tkazilgan. Ikkinchi bosqichda inert (azot) muhitda 700-800 °C haroratda karbonizatsiya va ishqoriy faollashtirish amalga oshirilgan. Aksiya davomida NaOH degidratatsiya va gaz fazasidagi reaksiyalar orqali mikrog‘ovaklar hosil bo‘lishiga yordam bergan. Sovutilgandan so‘ng namunalar suv va 0,1 M HCl eritmasi bilan neytral pH ga erishilgunga qadar yuvilib, 105 °C da quritilgan.

FFQ+PAN-5 namunasi zich tuzilma, notekis sirt va alohida mikrog‘ovaklar bilan xarakterlanadi, 10 % PAN qo‘shilganda esa g‘ovaklik sezilarli darajada ortadi,

sirt bo'shroq va hujayraviy ko'rinish oladi, bu azotning kiritilishi hisobiga mikroteksturani rivojlanishini ko'rsatadi. PS asosidagi namunalar uchun PAN ta'siri yanada kuchliroq namoyon bo'ladi: 5 % PAN bilan g'ovaklik past bo'lsa, 10 % da g'ovaklar soni va o'lchami keskin ortadi, yupqa devorlarga ega yengil hujayraviy tuzilma shakllanadi, bu esa piroliz jarayonida yuz beradigan aromatik kondensatsiya bilan bog'liqdir.




7-rasm. 800 °C da olingan uglerodli namunalar sirt morfologiyasi: 1) FFQ+PAN-5; 2) FFQ+PAN-10; 3) PS+PAN-5; 4) PS+PAN-10.



8-rasm. FFQ+PAN-10 namunalarining turli NaOH nisbatlarida olingan mikrosuratlar: 1) FFQ/NaOH = 1/0,4; 2) FFQ/NaOH = 1/0,8; 3) FFQ/NaOH = 1/1,5.

FFQ+PAN-10 namunalarining mikrosuratlarini tahlili shuni ko'rsatadiki, FFQ/NaOH = 1/0,4 nisbatida yirik va tarmoqlangan g'ovaklar shakllanadi, 1/0,8 nisbatda esa matritsaning optimal parchalanishi hisobiga g'ovaklik yanada bir xilda va rivojlangan holga keladi. Biroq NaOH miqdori 1/1,5 gacha oshirilganda tuzilma yomonlashadi: mayda g'ovaklar yo'qoladi, karkas parchalanishi bilan bog'liq agregatsiya jarayoni yuzaga chiqadi. Tabiiy uglerodlardan farqli o'laroq, past kul miqdoriga (<0,5 %) ega bo'lgan polimer materiallar yuqori dozadagi faollashtiruvchini talab qilmaydi, aksincha NaOH ortiqchiligi g'ovaklikni kamaytiradi.



9-rasm. PS+PAN-10 namunalarining turli NaOH nisbatlarida olingan mikrosuratlar: 1) PS/NaOH = 1/0,4; 2) PS/NaOH = 1/0,8; 3) PS/NaOH = 1/1,5.

PS/NaOH = 1/0,4 nisbatida tuzilma bir xil makro- va mezog'ovaklikka ega bo'lib, karkas yaxshi bog'langan bo'ladi. NaOH miqdori 1/0,8 gacha oshirilganda g'ovaklar kattalashadi va tuzilma buzilmasdan optimal g'ovaklikka erishiladi. Biroq 1/1,5 nisbatda parchalanish boshlanadi: uglerod to'ri buziladi, mikronuqsanlar

paydo bo‘ladi. FFQ+PAN-10 bilan solishtirilganda, PS asosidagi uglerodlar yuqori NaOH tarkibiga nisbatan kamroq barqarorlikka ega, bu ularning past termobarqarorligi va kul miqdori bilan izohlanadi.

Keyinchalik, kimyoviy faollashtirilgan ko‘mir namunalarning faollashtiruvchi modda nisbatlari turlicha bo‘lgan holatlarida ularning teksturaviy xususiyatlarini aniqlash bo‘yicha tadqiqotlar olib borildi.

2-jadval.

PAN qo‘shilgan namunalarning teksturaviy xususiyatlari

Namuna	S_{sol} , m ² /g	V_1 , sm ³ /g	V_2 , sm ³ /g	R, Å	O‘rtacha gidravlik g‘ovak radiusi (V/A)
FFQ+PAN-5	125,62	0,0828	0,1012	63,192	4,3882
FFQ+PAN-10	456,10	0,5357	0,0623	58,376	3,7701
PS+PAN-5	104,01	0,0688	0,0841	64,101	4,3685
PS+PAN-10	512,88	0,6025	0,0701	57,125	3,7121

3-jadval.

Kimyoviy faollashtirilgan namunalarning teksturaviy xususiyatlari

Namuna	S_{sol} , m ² /g	V_1 , sm ³ /g	V_2 , sm ³ /g	R, Å	O‘rtacha gidravlik g‘ovak radiusi (V/A)
APS-0,8	749,7	0,914	0,167	58,606	3,4796
AFFQ-0,8	873,3	1,021	0,119	57,373	3,7711

PAN qo‘shilishi FFQ va PS tizimlarida solishtirma sirt maydoni hamda mikrog‘ovak hajmining sezilarli darajada ortishiga olib keladi. Xususan, FFQ+PAN-10 namunasi uchun sirt maydoni FFQ+PAN-5 ga nisbatan 125,62 m²/g dan 456,10 m²/g gacha oshadi, PS uchun esa bu ko‘rsatkich 104,01 m²/g dan 512,88 m²/g gacha ortadi. Shu bilan birga, mikrog‘ovaklar hajmi 0,5357–0,6025 sm³/g oralig‘iga yetadi, o‘rtacha g‘ovak radiusining kamayishi esa mayda g‘ovakli tuzilmaning shakllanishini ko‘rsatadi. Bu ta‘sir ayniqsa PS asosidagi namunalarda yaqqol namoyon bo‘ladi.


NaOH yordamida kimyoviy faollashtirish orqali g‘ovaklik yanada oshiriladi: APS-0,8 va AFFQ-0,8 namunalarda solishtirma sirt maydoni mos ravishda 749,7 va 873,3 m²/g ni, mikrog‘ovak hajmi esa 0,914 va 1,021 sm³/g ni tashkil etadi. Bu holda asosiy qismni radiusi 4 Å dan kichik bo‘lgan mikrog‘ovaklar tashkil etadi. Taqqoslovchi tahlil shuni ko‘rsatadiki, FFQ PSga nisbatan yuqoriroq darajadagi g‘ovaklikni ta‘minlaydi, bu esa uning yuqori termobarqarorligi va yaxshi karkas shakllantiruvchi xususiyatlari bilan bog‘liqdir.

Dissertatsiyaning “**FFQ va PS asosidagi ko‘mirlarning organik adsorbatlarga nisbatan adsorbsion faolligini tahlil qilish**” deb nomlangan to‘rtinchi bobida termik va kimyoviy faollashtirilgan ko‘mirlarning adsorbsion xossalari o‘rganish natijalari bayon qilingan.


Fenol va uning hosilalari suv muhitining toksik va barqaror ifloslantiruvchilari hisoblanadi, shuning uchun ularning uglerodli sorbentlarga adsorbsiyasi bo‘yicha tadqiqotlar dolzarb ahamiyatga ega. FFQ va PS asosidagi turli teksturaviy xususiyatlarga ega ko‘mirlar yordamida fenolni olib tashlash kinetikasi o‘rganildi. Tajriba uchun 0,05 g sorbent 50 ml fenol eritmasiga (20-100 mg/l) solindi va xona haroratida 150 ayl./daq tezlikda 24 soatgacha aralashtirildi. Namuna olish 5–360 daqiqalar oralig‘ida amalga oshirildi, eritmalar 4000 ayl./daq tezlikda 10 daqiqa

davomida sentrifugalandi va filtrlandi. Fenol konsentratsiyasi 270 nm da spektrofotometrik usulda, kalibrlash egri chizig‘i asosida aniqlandi. Adsorbsion sig‘im boshlang‘ich va qolgan konsentratsiyalar farqi asosida hisoblab chiqildi.

10-rasmda turli adsorbsion materiallar ishtirokida fenol konsentratsiyasining vaqt bo‘yicha o‘zgarish kinetikasi grafiklari keltirilgan.



10-rasm. Fenolning adsorbsion kamayishi kinetikasi.




11-rasm. Suvli eritmalaridan fenolning adsorbsion kamayish kinetikasi.

Fenolning adsorbsion kamayish kinetikasini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, barcha namunalar uchun eng intensiv konsentratsiya pasayishi dastlabki 20-40 daqiqa ichida sodir bo‘ladi. Eng yuqori sorbsiya faolligi FFQ+PAN-10 namunasi uchun qayd etilgan: 40 daqiqa ichida fenol konsentratsiyasi 10,0 mg/l dan 4,9 mg/l gacha, 300-daqiqaga kelib esa 3,3 mg/l gacha kamayadi. PS+PAN-10 uchun qolgan konsentratsiya 300 daqiqada 3,8 mg/l ni tashkil etadi; 60 daqiqadan so‘ng sorbsiya tezligi sekinlashadi, bu esa g‘ovaklarning cheklangan ochiqligi bilan izohlanadi. FFQ+PAN-5 va PS+PAN-5 namunalarida qolgan konsentratsiyalar mos ravishda 4,9 va 4,4 mg/l bo‘lib, bu kamroq g‘ovak hosil bo‘lishi bilan bog‘liq.

PAN modifikatsiyasiz boshlang‘ich ko‘mirlar (FFQ-800 va PS-800) eng past samaradorlikni ko‘rsatdi: fenolning qolgan konsentratsiyasi mos ravishda 7,7 va 7,33 mg/l, bu PAN qo‘shilishining sorbsiya sig‘imiga sezilarli ta‘sirini tasdiqlaydi.


FFQ asosidagi faollashtirilgan namunalar uchun fenolning adsorbsiyasi kinetikasi tahliliga ko‘ra, optimal natijalar FFQ/NaOH = 1/0,8 nisbatida kuzatildi. AFFQ-0,8 namunasi uchun 60 daqiqada fenol konsentratsiyasi 2,3 mg/l gacha, 300 daqiqada esa 1,84 mg/l gacha kamaydi. AFFQ-0,4 namunasi 2,21 mg/l qolgan konsentratsiyani ta‘minladi, bu FFQ-800 (7,7 mg/l) dan ancha samarali, biroq AFFQ-0,8 dan past. NaOH ortiqcha miqdorda (AFFQ-1,5) qo‘llanganda g‘ovakli tuzilma buzilishi sababli sorbsiya tezligi pasayadi va yakunida fenol konsentratsiyasi ~3,5 mg/l atrofida qoladi. Natijada, barcha faollashtirilgan

uglerodlar boshlang'ich materialdan ustun, ammo eng yaxshi natijalar sirt maydoni va faol markazlar o'rtasidagi muvozanat $\text{AFFQ}/\text{NaOH} = 1/0,8$ nisbatida erishiladi.



12-rasm. Suvli eritmalaridan fenolning adsorbsion kamayish kinetikasi ($C_0 = 10 \text{ mg/l}$).


Turli darajadagi ishqoriy faollashtirish orqali olingan PS asosidagi faollashtirilgan ko'mirlar fenolni adsorbsiyalashda sezilarli farqlarni ko'rsatdi. Eng yaxshi natijalar APS-0,8 namunasi uchun qayd etildi: 60 daqiqada fenol konsentratsiyasi 3,6 mg/l gacha, 300 daqiqada esa 2,06 mg/l gacha kamaydi. NaOH nisbati kamroq bo'lgan holatda (APS-0,4) qolgan konsentratsiya 3,26 mg/l ni tashkil etdi, ortiqcha NaOH (APS-1,5) qo'llanilganda esa bu ko'rsatkich 3,6 mg/l atrofida saqlanib qoldi. Shunday qilib, $\text{PS}/\text{NaOH} = 1/0,8$ nisbati optimal bo'lganligi aniqlandi.



13-rasm. Suvli eritmalaridan sefazolinning adsorbsion kamayish kinetikasi ($C_0 = 10 \text{ mg/l}$, xona haroratida).


10% PAN qo'shilishi solishtirma sirt yuzasining ortishi va faol markazlar sonining ko'payishiga olib keladi. Eng yaxshi natijalar NaOH ishtirokida 1:0,8 nisbatda faollashtirishda kuzatildi; ishqor ortiqchligi esa uglerod matritsasining buzilishi hisobiga adsorbsion samaradorlikni kamaytiradi. Sefazolin adsorbsiyasini o'rganish uchun NH_2N bilan fotometrik usul ($\lambda = 565 \text{ nm}$) qo'llanildi. 10 mg/l konsentratsiyadagi sefazolin eritmalariga 0,5% NH_2N eritmasi qo'shib, keyin qizdirildi. Adsorbsion sinovlar 0,05 g sorbent va 50 ml eritma suspenziyasida 25°C da olib borildi. Filtrlashdan so'ng qolgan konsentratsiya spektrofotometrik usulda aniqlandi.

Natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki, sefazolini adsorbsiyalash bo'yicha eng yuqori tezlik va chuqurlik AFFQ-0,8 namunasi tomonidan namoyon etildi: 50 daqiqada konsentratsiya 10 mg/l dan 5,2 mg/l gacha, 300 daqiqada esa $\sim 4,1 \text{ mg/l}$ gacha kamaydi. APS-0,8 namunasi bu qiymatni $\sim 5,4 \text{ mg/l}$ gacha tushirdi. Modifikatsiyalanmagan FFQ+PAN-10 va PS+PAN-10 namunalarining sorbsiya faolligi past bo'lib, qolgan konsentratsiya 7,5–8 mg/l dan yuqori saqlanib qoldi. Tijoratda qo'llaniladigan faollashtirilgan ko'mir (AKU) oraliq samaradorlik ko'rsatdi, lekin AFFQ-0,8 dan past bo'ldi.



14-rasm. Tadqiq qilingan namunalarda fenolning xona haroratida adsorbsiyasi izotermalari.


Izotermalar shuni ko'rsatadiki, termik faollashtirilgan FFQ-800 va PS-800 namunalarning maksimal adsorbsion sig'imi taxminan 8,2 mg/g ni tashkil etadi. 10% PAN qo'shilishi bilan sorbsiya qobiliyati sezilarli darajada oshadi: FFQ+PAN-10 namunasi uchun bu ko'rsatkich 13 mg/g dan ortiq, PS+PAN-10 uchun esa ~11 mg/g ga yetadi. Bu o'sish solishtirma sirt yuzasining kengayishi hamda qo'shimcha funksional guruhlarining shakllanishi bilan izohlanadi. Modifikatsiyalangan namunalarning izotermalari Langmuir modeli shakliga ega bo'lib, past konsentratsiyalarda tez to'yinish tendensiyasini ko'rsatadi, ayniqsa bu FFQ+PAN-10 namunasi uchun yaqqol namoyon bo'lgan.



15-rasm. Tadqiq qilingan namunalarda fenolning xona haroratida adsorbsiyasi izotermalari.

NaOH bilan faollashtirilgan sorbentlarda fenolning adsorbsiyasi izotermalari ancha yuqori sig'imni ko'rsatmoqda: AFFQ-0,8 namunasi uchun bu qiymat ~58 mg/g gacha yetadi, bu esa modifikatsiya qilinmagan namunalarning (taxminan 13 mg/g) bilan solishtirganda sezilarli ustunlikni anglatadi. Ushbu o'sish mikroqovaklikning rivojlanishi va kislorod tutuvchi funksional guruhlar sonining ortishi bilan bog'liq. Izotermalar Jil-Tomas tasnifi bo'yicha L-turga kiradi, bu esa adsorbsiyaning yuqori affinigacha ega bo'lgan, monoqavatli shaklda kechishini anglatadi. NaOH ning 1:0,8 nisbatida eng yuqori adsorbsion faollik kuzatilgan bo'lsa, ortiqcha ishqor (1:1,5) ta'sirida tuzilmaning yemirilishi natijasida samaradorlik pasaygan.

Sefazolinning aktivlashtirilgan sorbentlar – AFFQ-0,8 va APS-0,8 – ustida adsorbsiyasi bo'yicha izotermalar, sanoat faol ko'miriga (AKU) nisbatan ancha yuqori sorbsiya sig'imiga ega ekanligini ko'rsatmoqda. Maksimal adsorbsion sig'im AFFQ-0,8 uchun taxminan 49 mg/g ni, APS-0,8 uchun esa 31 mg/g ni tashkil etadi, bu ko'rsatkich sanoat ko'miri (AKU) uchun 19 mg/g dan oshmaydi. Ushbu natijalar polimer chiqindilar asosida ishqoriy faollashtirish yo'li bilan olingan uglerodli sorbentlarning antibiotiklarga nisbatan yuqori samaradorligini tasdiqlaydi.



16-rasm. Tadqiq qilingan namunalarda sefazolinning xona haroratida adsorbsiyasi izotermalari.

Sefazolinning aktivlashtirilgan sorbentlar — AFFQ-0,8 va APS-0,8 — ustida adsorbsiyasi bo'yicha izotermalar, sanoat faol ko'miriga (AKU) nisbatan ancha yuqori sorbsiya sig'imiga ega ekanligini ko'rsatmoqda. Maksimal adsorbsion sig'im AFFQ-0,8 uchun taxminan 49 mg/g ni, APS-0,8 uchun esa 31 mg/g ni tashkil etadi, bu ko'rsatkich sanoat ko'miri (AKU) uchun 19 mg/g dan oshmaydi. Ushbu natijalar polimer chiqindilar asosida ishqoriy faollashtirish yo'li bilan olingan uglerodli sorbentlarning antibiotiklarga nisbatan yuqori samaradorligini tasdiqlaydi.

AFFQ-0,8 va APS-0,8 namunalarning izotermalari S-shaklga ega bo'lib, bu past boshlang'ich kontsentratsiyalarda faol markazlarning chegaralangan mavjudligini va C₁ ortishi bilan g'ovaklarning faol to'ldirilishini anglatadi. AKU uchun esa izoterma profili nisbatan tekis bo'lib, bu mikro'ovaklarning kamligi va sefazolin bilan kuchsiz o'zaro ta'sir mavjudligini bildiradi.

Lengmyur tenglamasi parametrlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, eng yuqori chegaraviy sig'im (A₀) ishqoriy faollashtirilgan namunalarda kuzatilgan: AFFQ-0,8 uchun 0,23 mmol/g, APS-0,8 uchun 0,19 mmol/g bo'lib, bu yuqori mikro'ovaklilik ($\Sigma V = 0,132$ va $0,118 \text{ sm}^3/\text{g}$) hamda fizik-kimyoviy adsorbsiyaga yordam beruvchi polyar guruhlar mavjudligi bilan bog'liq. FFQ-800 va PS-800 namunalarda PAN bo'lmagani sababli A₀ qiymatlari minimal (0,03 va 0,02 mmol/g) bo'lgan. PAN qo'shilishi orqali, xususan FFQ+PAN-10 namunasi uchun, g'ovak hosil bo'lishi evaziga sig'im 0,08–0,09 mmol/g gacha oshgan (K = 11,8).

Eng yuqori K qiymatlari va eng salbiy Gibbs energiyasi (G) qiymatlari AFFQ-0,8 (K = 38,6; G = -11,3 kJ/mol) va FFQ+PAN-10 (G = -18,5 kJ/mol) uchun qayd etilgan bo'lib, bu vodorodli va π - π o'zaro ta'sirlar ishtirokidagi adsorbsiyani tasdiqlaydi. Sefazolinning adsorbsiyasi bo'yicha Lengmyur tenglamasi parametrlari tahlili shuni ko'rsatadiki, maksimal adsorbsion sig'im AFFQ-0,8 (0,16 mmol/g) va APS-0,8 (0,13 mmol/g) uchun qayd etilgan bo'lib, bu NaOH yordamida ishqoriy faollashtirish samaradorligini ko'rsatadi. Muvozanat konstantalari (K = 41,38 va 39,99) yuzaning sefazolonga yuqori affinligini bildiradi, Gibbs energiyasining qiymatlari (-8,89 va -8,93 kJ/mol) esa vodorodli va donor-akseptorli o'zaro ta'sirlar bilan kechuvchi fizik adsorbsiyaga ishora qiladi. Sanoat faol ko'mirida (AKU) A₀ (0,09 mmol/g) va K (21,13) qiymatlari past bo'lib, bu mikro'ovaklikning yetarli emasligi va yuzaning kamroq selektivligi bilan izohlanadi.

XULOSA

1. FFQ qatroni bosqichma-bosqich parchalanuvchi xususiyatga ega bo'lib, 700 °C da 63,3% gacha uglerod qoldig'i hosil qilgan, bu esa PS uchun 58,6% ni tashkil qilgan bir bosqichli parchalanuv bilan solishtirganda, FFQning termobarqaror uglerod materiallari olish uchun xomashyo sifatida afzal ekanligini

ko'rsatadi va 1000 °C da mos ravishda 36,7% va 42% massaning yo'qolishi aniqlandi.

2. Rentgenofazaviy tahlil natijalariga ko'ra, FFQ-800 namunasi uchun $2\theta \approx 26^\circ$ da (002) va 43° da (100) cho'qqilarning toraygan va intensiv ko'rinishi qisman grafitlanish va notartibli tuzilma hosil bo'lishini ifodalaydi. d_{002} yo'nalishi bo'yicha kristallit o'lchami FFQ-800 uchun $\sim 1,9$ nm, PS-800 uchun esa $\sim 1,1$ nm deb topilgan. 800 °C da termik ishlodan so'ng olingan namunalarda IQ-spektrlarida C-H ($2800-3000 \text{ cm}^{-1}$) va C=O ($\sim 1700 \text{ cm}^{-1}$) to'lqinlarining yo'qolishi uchraydi, bu esa uchuvchan fragmentlarning yo'qolishi va aromatik uglerod hosil bo'lishini tasdiqlaydi.

3. FFQ-700 namunasi zich va bir jinsli tuzilma hamda mayda g'ovaklar bilan tavsiflanadi, PS asosidagi termik faollashtirilgan ko'mirlar esa bo'sh, segmental morfologiyaga, yaqqol ifodalangan makrog'ovaklilik va yoriqlarga ega. Eng yuqori solishtirma sirt maydoni va g'ovak hajmi 850 °C da kuzatilgan: FFQ uchun mos ravishda $94,12 \text{ m}^2/\text{g}$ va $0,1585 \text{ sm}^3/\text{g}$, PS uchun esa $82,24 \text{ m}^2/\text{g}$ va $0,1923 \text{ sm}^3/\text{g}$ ni tashkil etgan. O'rtacha g'ovak radiusi FFQ uchun $6,47 \text{ \AA}$, PS uchun $5,47 \text{ \AA}$ bo'lib, bu tuzilmada mezog'ovaklarning shakllanishini tasdiqlaydi.

4. PAN qo'shilishi uglerodli tuzilmaning tartiblilik darajasini oshishiga xizmat qiladi va FFQ+PAN-800 namunalarida (002) cho'qqisining ($\sim 26^\circ 2\theta$) torayishi hamda intensivligining oshishi, shuningdek, $\sim 43^\circ$ atrofida yelka hosil bo'lishi kuzatilib, bu qisman grafitlanish va tartibli zarralar yig'ilishini ko'rsatadi. PS+PAN-800 namunalarida (002) cho'qqisi keng va sust ifodalangan bo'lib, bu past termobarqarorlik tufayli yuzaga kelgan amorf tuzilmani anglatadi. IQ-spektral tahlillar natijalariga ko'ra, 800 °C da C-H ($2800-3000 \text{ cm}^{-1}$) va C=O ($\sim 1700 \text{ cm}^{-1}$) tasmasi yo'qoladi, bu organik qoldiqlarning yo'qolganini bildiradi; modifikatsiyalangan namunalarda saqlanib qolgan sust C=N va N-H tasmalari esa tuzilma tarkibiga azotning kiritilganini tasdiqlaydi.

5. FFQ-800 va PS-800 namunalarida fenol bo'yicha maksimal adsorbsion sig'im atigi $0,03$ va $0,02 \text{ mmol/g}$ ni tashkil etgan bo'lsa, 10% PAN qo'shilishi bu ko'rsatkichni FFQ+PAN-10 uchun $0,08 \text{ mmol/g}$, PS+PAN-10 uchun esa $0,09 \text{ mmol/g}$ gacha oshishiga olib kelgan bo'lib, bu g'ovaklik tuzilmasining yaxshilanishi va qutbli guruhlarning shakllanishi bilan izohlanadi. Eng yuqori adsorbsion sig'im AFFQ-0,8 namunasi uchun qayd etilib, $A_0 = 0,23 \text{ mmol/g}$, muvozanat konstantasi $K = 38,6$ va umumiy g'ovak hajmi $V = 0,132 \text{ sm}^3/\text{g}$ ni tashkil etdi, bu esa yaxshi rivojlangan mikrostrukturaga va faol markazlar zichligining yuqoriligiga dalolat beradi.

6. Sefazolinni adsorbsiyalash bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlar AFFS-0,8 namunasida kuzatilib, $A_0 = 0,16 \text{ mmol/g}$, $K = 41,38$, $V = 0,110 \text{ sm}^3/\text{g}$ bo'lib, u yaxshi rivojlangan mikrostruktura va antibiotik molekulariga yuqori affinigacha ega ekani bilan ajralib turadi. Yaqin ko'rsatkichlar APS-0,8 namunasi tomonidan namoyon etilib, u ham adsorbsion sig'imi jihatidan import qilingan aktivlangan ko'mirdan ustun bo'lgan. Kimyoviy faollashtirilgan namunalarda "KHANTEX GROUP" MChJ korxonasida sanoat sinovlaridan muvaffaqiyatli o'tib, fenol birikmalari konsentratsiyasini 22 mg/l dan $0,8 \text{ mg/l}$ gacha, bo'yoqlarni esa 29 mg/l dan $<0,2 \text{ mg/l}$ gacha kamaytirishga erishilgan bo'lib, bu ularning to'qimachilik sanoati oqava suvlarini tozalashda amaliy jihatdan qo'llashga yaroqliligini tasdiqlaydi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНОЙ СТЕПЕНИ
DSc.03/29.08.2023.К/Т.66.02 ПРИ НАМАНГАНСКИЙ
ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ТЕХНИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ**

**НАМАНГАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ТЕХНИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

ХУДАЙБЕРДИЕВ НОСИРЖОН ЭРГАШЕВИЧ

**КОЛЛОИДНО-ХИМИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СОЗДАНИЯ УГОЛЬНЫХ
АДСОРБЕНТОВ ИЗ ВТОРИЧНЫХ ТЕРМОПЛАСТА И
ТЕРМОРЕАКТИВНОЙ СМОЛЫ**

02.00.11 – Коллоидная и мембранная химия

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ХИМИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Тема диссертации доктора философии (PhD) по химии в аттестационной комиссии при Министерстве Высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан В2025.2.PhD/K963 зарегистрирован под номером.

Диссертация выполнена в Наманганский государственный технический университет.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета (www.namdtu.uz) и Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» по адресу (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:

Эргашев Ойбек Каримович
доктор химических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Салиханова Дилноза Саидакбаровна
доктор технических наук, профессор

Абдулхаев Толибжон Долимжонович
доктор химических наук, доцент

Ведущая организация:

Фарганский государственный технический университет

Защита диссертации состоится «12» август 2025 г. в «11⁰⁰» часов на заседании Научного совета DSc.03/29.08.2023.K/T.66.02 при Наманганский государственный технический университет по адресу: 160115, г. Наманган, ул. Косонсой, 7, Тел: (+99869) 234-14-85, Факс: (+99869) 234-14-85; e-mail: info@namdtu.uz, Наманганский государственный технический университет, 6-здание, 1-этаж, ауд. 303).

Диссертация зарегистрирована в Информационно-ресурсном центре Наманганский государственный технический университет за № «43», с которой можно ознакомиться в информационно-ресурсном центре 160115, г. Наманган, ул. Косонсой, 7. Тел: (+99869) 234-14-85, Факс: (+99869) 234-14-85).

Автореферат диссертации разослан «29» июля 2025 года.
(Реестр за № 21 от «29» июля 2025 года).

Шамшидинов И.Т.

Заместитель председателя научного
совета по присуждению
ученой степени, д.т.н., профессор

Маллабаев О.Т.

Ученый секретарь научного
совета по присуждению
ученой степени, д.х.н.ф, доцент

Шеркузиев Д.Ш.

Председатель научного семинара
при научном совете по присуждению
учёной степени, д.т.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора (PhD) философии)

